

O‘QUVCHILARNI RAG‘BATLANTIRISH ORQALI ULARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH

Axmedova Dilnoza Xabibullo qizi

KIRISH

Insonlarni muayyan faoliyatga chorlashning eng ishonchli yo‘li bu ularni shu faoliyat uchun taqdirlash, ya'ni rag'batlantirishdan iborat. Bu shunchalik ravshanki, uni alohida ta'kidlab o‘tishga arzimaydi, deb o‘ylash mumkin. Lekin inson ma’lum bir ishni bajarishdan o‘ziga qoniqish sezishi uchun albatta atrofdagilardan rag‘bat izlaydi.

Rag‘batlantirish metodlari – o‘quvchilarning harakatlarini ijobiy baholashni ko‘zda tutadi. Rag‘batlantirish quvonch, qoniqish, qanoatlanish kechinmalarini paydo qiladi, tetiklik va g‘ayrat bag‘ishlaydi, o‘z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi, ijobiy xatti-harakatlarni rag‘batlantiradi, o‘z faoliyati va xulqiga mas’uliyatini oshiradi. Rag‘batlantirish metodlari xilma-xil bo‘lib, ular tarkibiga ma’qullash, ko‘ngil ko‘tarish, dalda berish, ishonch bildirish, qayd qilish, og‘zaki va yozma tashakkur bildirish, mukofatlash va boshqalar kiradi.

ASOSIY QISM

Rag‘batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo‘llanilishi lozim. Har qanday rag‘batlantirish o‘quvchining jamoa oldidagi chinakkam xizmatlariga muvofiq bo‘lishi lozim. Rag‘batlantirish vaqtida o‘quvchining alohida xususiyatlarini, jamoada tutgan o‘rnini hisobga olish va u ketma-ket bo‘lmasligi kerak. Haddan oshirib maqtash jamoaga nisbatan taqqoslash talabchanlikni bo‘shashtirib yuborish, bular o‘quvchida man-manlik, xudbinlik sifatlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Rag‘batni tashkil etishda o‘quvchining muvaffaqiyati bilan birga uning jamoadagi o‘rni, axloqiy qiyofasi, shuningdek, mehnatga, jamoa topshiriqlariga, jamoaning o‘ziga munosabati borasidagi jamoa fikrini inobatga olish ham talab etiladi. Ta’lim jarayonida rag‘batlantirish orqali o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish esa ta’lim sifatining oshishiga xizmat qiladi. Buning uchun turli xil metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. **“Rag‘bat”** tushunchasini ta’limga tadbiiq etish ta’lim sifatini takomillashtirishi bilan bir qatorda o‘quvchilarda ta’lim materiallarini o‘zlashtirishga qiziqishini orttirish, mustaqil ta’lim olish qobiliyatini rivojlantirish hamda ular o‘rtasida sog‘lom raqobatni yuzaga keltirish uchun xizmat qiladi. Rag‘batlantirish natijasida o‘quvchilar kichik doirada o‘zini yetuk shaxs sifatida tanishi, o‘z tengdoshlari orasida liderlik xususiyatlarini xis qilishi va yanada yuqori natijalarga erishish motivatsiyasi namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, kichik yoshdagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga oladigan bo‘lsak, sodda va aniq rag‘batlantirish usullarini qo‘llash maqsadga muvofiq. Ushbu rag‘batlantirishlarni

yakka tartibda, jamoaviy tartibda, bir soatlik darsga, hafta davomidagi darslarni o‘zlashtirish natijasiga, chorak yoki yil yakunidagi bilim, ko‘nikmalariga qarab qo‘llash mumkin.

Quyida o‘quvchilarni rag‘batlantirishning interfaol, zamonaviy usullarini qo‘llash hamda ularning ta‘limiy-tarbiyaviy ahamiyatini ko‘rsatib o‘tamiz.

Pul birliklari orqali rag‘batlantirish.



Bu turdagi rag‘batlantirishni har bir sinfga turli usullarda qo‘llash mumkin.

1-sinflar uchun 100 so‘mlik, 500 so‘mlik hamda 1000 so‘mlik pul birliklarining kichik kartochkalardagi ko‘rinishlaridan foydalanish mumkin. Bunda o‘qituvchi o‘quvchining har bir olgan 5 bahosi uchun 100 so‘mdan berib boradi, 100 so‘mliklar 5ta bo‘lganda bu pullar 500so‘mlik pullarga almashtiriladi, 500 so‘mlik pullar ikkita bo‘lganda bu pullar 1000 so‘mlik pullarga almashtiriladi. O‘qituvchi tomonidan ma‘lum bir miqdor belgilanadi va qaysi o‘quvchining katmonidagi pullar o‘sha miqdorga yetib borsa, o‘sha o‘quvchiga mukofot beriladi. O‘quvchilar o‘zlarining jamg‘armasini tezroq o‘sha miqdorga yetib borishiga intiladi. Bu orqali o‘quvchilar 5 ta yuz 500 ga, 2ta 500 esa 1000 so‘mga teng bo‘lishini bilib oladi. O‘quvchilarning og‘zaki hisoblash malakalari ortib boradi shu bilan bir qatorda ularni bozor iqtisodiyoti haqidagi bilimlari shakllantiriladi.

2-3-sinflar uchun esa 1000 so‘mlik, 5000 so‘mlik va 10000 so‘mlik pullardan, **4-sinflar** uchun esa 5000 so‘mlik, 10000 so‘mlik, 50000 so‘mlik hamda

100000so‘mlik pullardan foydalanish mumkin. Bunda ham o‘quvchilar har bir olgan 5 baholari va yutuqlari uchun eng kichik pul birliklaridan boshlab rag‘batlantiriladi. Pullar miqdori ko‘payib borgani sayin o‘quvchilar ularni butunlab boradi va o‘z jamg‘armasini ko‘paytirishni yo‘lga qo‘yadi. Jamg‘armasi o‘qituvchi qo‘ygan miqdorga yetib kelgan o‘quvchilarni “Maqto‘v yorlig‘i”, “Sertifikat” yoki “Diplom” lar bilan taqdirlash mumkin. O‘qituvchi pul miqdorini bir hafta, bir chorak va bir yil uchun turlicha belgilashi mumkin.

Bu usul orqali o‘quvchilarni tartib intizomga ham o‘rgatish mumkin. Chunki uy vazifani bajarmagan, darslarga o‘z vaqtida tayyorlanmagan, darsga kech qolgan, odob doirasidan chiqqan o‘quvchilarning jamg‘armasidan jazo sifatida ma‘lum bir miqdordagi pul olib qo‘yiladi. Natijada o‘quvchilar odobli, tartibli bo‘lish bilan bir qatorda o‘z mehnati orqali to‘plagan pullarini kamayishiga ham yo‘l qo‘ymaydi.

XULOSA

Ta‘lim jarayonida har qanday metod ma‘lum bir maqsadga yo‘naltirilishi va buning natijasi esa bilim samaradorligining oshishiga xizmat qilishi lozim. Shu jumladan o‘quvchilarni shunchaki rag‘batlantirishdan farqli o‘laroq interfaol usullarda rag‘batlantirish ularning intellektual, ijodiy va ma‘naviy bilimlarini boyitishga xizmat qilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaeva H. A., Bikbaeva N.U. va boshq. Boshlang‘ich ta‘lim konstepstiyasi. Boshlang‘ich ta‘lim. 1998. 6 –son, -12 – 24 betlar.
2. Abdurahmanova N., Jumaev M., O‘rinboeva L. Boshlang‘ich sinflar uchun matematikadan didaktik materiallar. -T.: «Istiqlol», 2004, - 65 bet.
3. Azizxo‘jaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: «O‘qituvchi», 2003. – 23 – 48 bet.
4. Abdieva D. Soros bilan hamkorlik – yutuqlar kaliti. Boshlang‘ich ta‘lim. 2003. 2-son, 17- 22 bet.
5. Bo‘ronova Sh. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish. Uzluksiz ta‘lim. 2004. 3-son. - 34-38 betlar.
6. Bikbaeva N., Yangiboeva E. 2-sinf matematika darsligi. -T.: «O‘qituvchi», 2008. - 112 bet.